

**VIRUSLI GEPATIT B FONIDA COVID -19 NING KLINIK
LABORATOR KECHISH XUSUSIYATLARI**

Isomadinova L.K, PhD Qudratova Z.E., Babaxanova F.Sh.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya: Hozirgi tibbiyotning eng dolzarb muammolardan beri Covid-19 kasalligi bo'lib ,2019 yili 11 mart kuni Butun Jahon Sog'liqni Saqlash tashkiloti tamonidan e'lon qilingan pandemiya hozirgi kungacha o'z dolzarbligini yuqotmagan. Hozirgi kunda kelib bu kasallik tibbiyot olimlari tamonidan ancha o'rganilganiga qaramasdan, bu kasallik boshqa kasallik fonida qanday kechishi va undagi klinik laborator ko'rsatgichlarning qanday namoyon bo'lishi to'liq o'rganilmagan .

JSST statistikasiga ko'ra virusli gepatit B kasalligi bilan butun jahonda 2 milliard kishi kasallanishi aniqlangan bo'lsa, har yili esa bu kasallikdan 600.000 ziyod kishi halok bo'ladi. Bu kasallikning qozg'atuvchisi DNK-saqlovchi virus bo'lib, parenteral yo'l orqali yuqadi. Virusli gepatit B ko'p hollarda surunkali gepatit sababi bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: SARS -CoV-2, surunkali gepatit, klinik laborator diagnostika, ALT, AsT, biokimyoviy tekshirishlar. PTI, MNO

**КЛИНИКО-ЛАБОРАТОРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ
COVID -19 НА ФОНЕ ГЕПАТИТА В**

Аннотация: Заболевание SARS-CoV-2 стало одной из самых актуальных проблем современной медицины, а пандемия, объявленная Всемирной организацией здравоохранения 11 марта 2019 года, не утратила своей актуальности и по сей день. Несмотря на то, что это заболевание очень много изучено учеными-медиками, то, как развивается это заболевание на фоне других заболеваний и как проявляются его клинико-лабораторные показатели, четко не изучено. По оценкам организации здравоохранения, 2 миллиарда человек во всем мире инфицированы гепатитом В, и ежегодно от этого заболевания умирает более 600 000 человек. Возбудителем этого заболевания является ДНК-запоминающий вирус, который передается парентеральным путем. Вирусный гепатит В во многих случаях может быть причиной хронического гепатита.

Ключевые слова: Covid-19, хронический гепатит, клинико-лабораторная диагностика, АлТ, АсТ, биохимические тесты, ПТИ, МНО

CLINICO-LABORATORY FEATURES OF THE COURSE OF COVID-19 WITH HEPATITIS B

Abstract: The SARS-CoV-2 disease has been one of the most urgent problems of modern medicine, and the pandemic announced by the World Health Organization on March 11, 2019 has not lost its relevance to this day. Despite the fact that this disease has been studied a lot by medical scientists, how this disease develops against the background of other diseases and how its clinical laboratory indicators are manifested have not been clearly studied.

According to the estimates of the health organization, 2 billion people worldwide are infected with hepatitis B, and more than 600,000 people die from this disease every year. The causative agent of this disease is a DNA-storing virus, which is transmitted parenterally. Viral hepatitis B can be the cause of chronic hepatitis in many cases.


Keywords: covid-19, chronic hepatitis, clinical and laboratory diagnostics, ALT, AST, biochemical tests. PTI, INR.

Tadqiqot maqsadi: Covid-19 ning virusli gepatit B kasalligi fonida kechishida klinik laborator diagnostikasining o'ziga xos jihatlatini aniqlash va kelajakda klinik laborator xususiyatlarini o'rgangan holda davolashni to'g'ri yo'naltirishga erishish.

Materiallar va tadqiqot usullari: Tadqiqot ob'ekti sifatida 2022 yil noyabr oyidan 2023 yil–aprel oylarida Samarqand viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasiga murojaat qilgan 47 ta bemor tashkil qildi. Barcha bemorlardan standart bo'yicha umumiy qon taxlili va qon biokimyoviy taxlillari va ikkilamchi gemostaz holatini aniqlash uchun tahlillar o'tkazildi.

Olingan natijalar. Bemorlar 2 ta guruhga bo'lindi: I guruhni 18 yoshdan 47 yoshgacha 16 ta virusli gepatit B bilan kasallangan bemorlar tashkil qildi, II guruhni 23-61 yoshgacha 23 ta virusli gepatit B fonida covid -19 bilan kasallangan bemorlar tashkil qilindi.


Hamma bemordan olingan natijalardan ko'ra umumiy qon tahlida leykositlar miqdoriga ko'ra I - guruhda (1) 0.9 % II guruhda (4) 2 % bemorda leykositoz kuzatildi. I- guruhda trombositlar miqdorining kamayishi I -guruhda (1) 5.3 % tashkil qildi ,III -guruhda (2) 8% tashkil qildi.(1-rasm)



1-rasm. Bemorlarda leykotsitoz va trombotsitopeniyaning uchrash chastotasi.

1 -guruhda ECHT ko'rsatgichi (8) 56.5 % 18-29 mm/soatni, (5) 30.4% 13-17 mm/soatni, (3) 13%-30-33mm/soatni tashkil qilindi.

2 guruhda ECHT ko'rsatgichi (10) 45.5 % 19-29 mm/soatni, (7) 32.4% 15-18 mm/soatni, (6) 22.1%-30-33mm/soatni tashkil qilindi (2-rasm).




2 -rasm. ECHT ing oshish dinamikasi.

Biokimyoviy tekshirishlardan I-guruh ma'lumotlarga ko'ra: umumiy bilirubin miqdori (9) 59.3% bemorlarda ko'tarilgan bo'lsa, II guruh bemorlarda umumiy bilirubin miqdori (15) 68.7% bemorlarda baland bo'lganligi aniqlandi. AST fermentining oshishi tadqiqotimizga ko'ra I guruh a'zolarida hamma bemorlarda (3) 23 % holatdav oshganligi aniqlandi II guruhda bu ko'rsatgich (8) 34.4% holatda oshganligi aniqlandi .


AST fermentining oshishi tadqiqotimizga ko'ra I guruh a'zolarida hamma bemorlarda (7) 49 % oshganligi aniqlandi II guruhda bu ko'rsatgich (14) 61.8% oshganligi aniqlandi.

Qon plazmasidagi kreatinin miqdori I guruhda (1) 4.5 % bemorda oshganligi aniqlangan bo'lsa II guruhda (2) 8.8% holatni tashkil qildi. Mochevina I guruhda (1) 1.9 % oshgan bo'lsa II-guruhda (2) 2.2% holatda oshganligi aniqlandi. (3 -rasm)



3-rasm.Qon biokimyoviy tahlil natijalari.

Tekshirishlar davomida C-reaktiv oqsilning miqdori ikkala guruh bemorlarida ham tekshirildi. Tekshirishlar natitijasida I guruhda (9) 61% bemorda ishonchli oshganligi, II guruhda (23) 100% oshganligi aniqlandi(4-rasm).




4-rasm. Bemorlar qon zardobida C-reaktiv oqsilning ko'rsatkichlari.

Ikkilamchi gemostaz holatini tekshirish maqsadida ikkila guruhda xam protrombin vaqti, PTI va MNO tekshirildi. I-guruh bemorlarda protrombin vaqti deyarli o'zgaradi. II-gurugda esa bu o'zgarish (2) 3.2% ni tashkil qildi I guruh PTI miqdorini o'zgarishi (1) 1.2% ni tashkil qildi. II guruhda (2) 3.4 % ni tashkil qildi. I -guruhda MNO (1) 0.9 % o'zgardi II guruhda (1) 2.8% o'zgarganligi aniqlandi. ACHTV miqdorining o'zgarishi I guruhda (1) 0.2% tashkil qildi. II-guruhda (2) 8% tashkil qildi. (1 -jadval)

1-jadval

T/r	I-guruh	II -guruh
Protrombin vaqti	(1) 1.%	(2) 3.2%
PTI	(1) 1.2%	(2) 3.4%
MNO	(1) 0.9%	(2) 2.8%

Ikkala guruhlarni to'liq tekshirish maqsadida bemorlarda D- dimer tahlili ham o'tkazildi. Tadqiqotga ko'ra I-guruhda D -dimerning ko'tarilishi (1) 2 % ni tashkil qildi II guruhda (13) 49 % tashkil qildi.(5-rasm).



5-rasm. Ikkala guruhda D-dimerning o'zgarish dinamikasi

Xulosa; Tadqiqotlarimiz natijasi shuni ko'rsatdki, virusli gepatit B fonida Covid -19 ning barcha bemorda og'ir kechganligi aniqlandi. II guruh bemorlarning klinik laborator ko'rsatgichlari I guruh bemorlarga nisbatan barcha ko'rsatgichlarning yuqori ekanligi va Covid-19 gepatitni klinik laborator ko'rsatgichlarning avj olishiga olib keldi. Covid-19 virusi bemorlarda jigar funksiyasining faoliyatiga ta'sir qilganligi

va kasallikni surunkali holatining qo'zg'alishiga olib keldi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Berdiyeva Shohida Shukurullayevna, Isomadinova Lola Kamolidinovna, & Komulova Zarnigor Nabijonovna. (2023). Differential diagnosis of alcoholic and viral hepatitis. *World Bulletin of Public Health*, 21, 8-11.

2. Kudratova Z. E., Normurodov S. Etiological structure of acute obstructive bronchitis in children at the present stage - *Thematics Journal of Microbiology*, 2023. P.3-12.

3. Kudratova Z. E., Tuychiyeva S. K. Atipik mikroflora etiologiyali o'tkir obstruktiv bronxitlar etiopatogenezining zamonaviy jixatlari. *Research Focus*, 2023, B. 589-593.

4. Ибрагимова Н. С., Келдиёрова Ш. Х. К., Назарова Г. Ш. Значение фолиевой кислоты, гомоцистеина и эндотелина-1 при развитии синдрома поликистозных яичников у женщин репродуктивного возраста // *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 41-45.

5. Ибрагимова Н. С., Ибрагимов Б. Ф., Махматкулов Р. А. У. Диагностические критерии синдрома поликистозных яичников // *Вестник науки и образования*. – 2021. – №. 4-1 (107). – С. 70-72.

6. Кувандииков Г. Б., Кудратова, З. Э., Юсупова, Н. А., Бердиярова Ш. Ш. (2020). "Проблемы достоверности результатов лабораторной диагностики инфекций, передаваемых половым путем". // *In European research: innovation in science, education and technology* (pp. 79-82).

7. Набиева Ф. С., Кудратова З. Э., Кувандииков Г. Б. Роль *Saccharomyces cerevisiae* в развитии современной биотехнологии // *Достижения науки и образования*. – 2021. – №. 5 (77). – С. 57-60.

8. Набиева Ф.С., Ибрагимова Н. С. Бобокулов О. О. Использование *Saccharomyces cerevisiae* для получения конъюгатов для ИФА (литературный обзор) // *Журнал Биомедицины и практики*. – 2022. – Т. 7. – №. 3.

9. Nabieva F.S., Rayimova F.S., Abdusamatov B.A. Artificial intelligence in medicine // *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 23-27.

10. IN Sabirovna, KL Alikhanovna The significance of clinical-laboratory and instrumental research methods in the diagnosis of echinococcosis // *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 3 (10), 240-244, 2022

11. IN Sabirovna, IB Fikriyevich, KG Berdirasulovich Clinical symptoms of hypoxic-ischemic encephalopathy in newborn with different gestation // *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 3 (9), 286-289, 2022

12. М Абдуллаева, Н Ибрагимова, Ф Яхшиликowa Клинико-лабораторная характеристика новорожденных с признаками переносимости // *Журнал вестник врача* 1 (03), 22-24, 2014.